

**YOSHLAR TARBIYASI: MA'NAVIY QADRIYATLAR VA "OMMAVIY
MADANIYATNING O'RNI****To'xtayeva Sitara Shuhrat qizi**

Buxoro davlat pedagogika instituti psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonida qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari, hamda ta'lim tarbiya jarayonida qadriyatlarning tasiri, millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati, ommaviy madaniyat hamda axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm, globalizatsiya bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'luvchi qadriyatlarning ahamiyati haqida fikr mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, qadriyat, ta'lim-tarbiya, barkamol avlod, milliy madaniyat, turmush tarzi, din, urf-odat va an'ana, muomala madaniyati, mehr-oqibat, muruvvat, andisha va or-nomus, odob-axloq, his-tuyg'ular, axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm.

Mamlakatimizda bugungi globallashtirish jarayonida yoshlarni milliy qadriyatlar asosida intellekti yuqori va vatanparvar qilib tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda.

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" nomli asarida bolalarni "diqqatlari va zehnlari chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgatish.... Ko'rganlari ustidan tez xulosa chiqarmasinlar", – deya ta'kidlab, farzand tarbiyasiga e'tibor berish lozimligini uqtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlatimizning qomusiy hujjati bo'lib, bu hujjat tahlil qilinganida unda yoshlar tarbiyasi, axloq-odobi, ijtimoiy himoyalangani, konstitutsiyaviy huquqlariga oid etimishga yaqin atama va so'z birlikmalari mavjud ekani ma'lum bo'ldi. Jumladan, bunyodkorlik g'oyalariga sodiqlik, yuksak mas'uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, demokratik-huquqiy davlat, fuqarolarning tinchligi, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlar va an'analari, qadriyatlari, ijtimoiy hayotda mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, inson va jamiyat munosabatlaridagi ijtimoiy adolat, dunyo hamjamiyatida xalqlar va millatlarning suveren tengligi, fuqarolarning e'tiqodi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar qonun oldidagi tengligi, sha'ni va obro'sining daxlsizligi, fuqarolarning vijdon erkinligi, adolatli mehnat, ijod erkinligi va har bir shaxsning madaniy yutuqlardan foydalanish erkinligi, yosh avlodni tarbiyalash va bepul ta'lim olishi kabi fikrlar keltirilgan bo'lib, ular Bosh Qomusimizda huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Odob-axloq milliy qadriyatlarimizning tarkibiy qismidir. "Davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi"[1]. Darhaqiqat, yosh avlodni qonuniylik prinsiplari asosida o'z xalqiga, uning qadriyatlariga, an'analarga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmat ruhida tarbiyalash orqali o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash dolzarbdur. Bilamizki, yoshlar ijtimoiy guruh sifatida, o'zi ko'zlagan maqsadi yo'lida mamlakatdagi ijtimoiy tizim rivojiga bevosita faol ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning ijtimoiy rivojlanishini ularning ma'naviy saviyasi darajasi orqali aniqlasa bo'ladi. Yoshlarning ma'naviy qarashlari milliy, diniy, o'z-o'zini anglash holatlari, talablari, hayotdagi faoliyati orqali o'z aksini ifoda etadi. Shu yo'nalishda o'tkazilgan sosiologik tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning fikricha, odamning ma'naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar bu – "Haqqo'ylik" (60,8%), "Milliy qadriyatlarni hurmat qilish" (55,5%), "O'z xalqining tarixini yaxshi bilish", "Milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirish" (44,2%), "Qalb pokligi" (39,1%), "Kamtarlik" (39,5%), "Millatlararo va hududlararo bag'rikenglik" (29,6%), "Ekstremistlarga salbiy munosabat" (19,5%), "Mehnatsevarlik" (0,5%), "Madaniylik" (0,9%), "Bilimdonlik" (0,7%) ko'rsatilgan. So'rov-tadqiqotlarda qatnashgan respondentlar fikriga ko'ra, yoshlarimizning yarmidan ko'pi poraxo'rlikni – 54%, takabburlikni – 52,7%, shu bilan birga, ikkiyuzlamachilikni – 17,3%, beparvolikni – 14,5%, tekinxo'rlikni – 10,4%, yolg'onchilikni – 1,7%, hasadni – 0,5%,

g'iybatni – 0,6%, tuhmat, dangasalik va qo'pollikni – 0,2% yoqtirmas ekan. Yoshlarning fikri bo'yicha xalqning kuchi millatning birdamligida, uning olamshumul ahamiyati, avvalo, iqtisodiyotida – 69,7%, qurolli kuchlarida – 44,6%, ilmda – 44,4%, siyosatda – 41,5%, odobliligida – 37,7% deb ta'kidlashgan[2].

Natijalardan ko'rinadiki, yoshlardan “odamning ma'naviyatini belgilab beruvchi asosiy sifatlar” so'ralganida, salbiy axloqiy qarashlarga juda kam foiz berilgani, axloqiy qadriyat sifatleri esa yuqori baholangani o'g'il-qizlarimiz bugungi kunning yetuk, barkamol, vatanparvar farzandlari sifatida kamol topayotganlaridan dalolat. Ta'kidlash joiz, Vatan so'zining ma'nosiga O'zbekiston yoshlari alohida urg'u berishar ekan. Yoshlarning aksariyati “Dunyoda davlatlar ko'p, lekin bizning O'zbekiston Vatanimiz – yagona va hech qayerda topilmaydi”, degan fikrlarni bildirishgani diqqatga sazovordir.

Albatta, so'nggi yillarda respublikamizda fan, madaniyat, ishlab chiqarish, ta'lim sohasida jadal rivojlanishlar sur'ati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xususan, ta'lim tizimida amalga oshirilgan tub islohotlar tizimga yangi axborot-kommunikasiya va pedagogik texnologiyalarning kirib kelishiga asos bo'ldi.

Inson ma'naviy olami bo'yicha o'nga yaqin maqolalar muallifi Abduxalil Mavrulov o'zining “Vatanni sevish mas'uliyati” kitobida yoshlar haqida shunday fikrlarni ilgari surgan: “Yoshlarimizning aksariyati davrning ruhini to'g'ri his etmoqda. ... Ayni paytda yoshlarda aql va farosatning mutanosibligini ta'minlashga bo'lgan intilish jamiyat barqarorligini mustahkamlovchi omil sifatida baholanishi mumkin.

Erishilgan yutuqlar qatori yoshlarimizning ayrim qismida mavjud bo'lgan, ba'zan yangidan paydo bo'layotgan salbiy holatlar, ushbu vaziyatga ayrim kattalarning munosabatiyu o'sha yoshlarning bunday illatlarga nisbatan yondashuvi xavotirli. Ba'zi yoshi ulug'larning yoshlarimiz dunyoqarashidagi muayyan salbiy o'zgarishlarga nisbatan “zamon o'zgardi, yoshlar ham o'zgardida yoki bunday holni “tabiiy jarayon” sifatida tahlil etishga urinishlar ham mavjudki, bu har qanday ilm ahlini tashvishga solishi tabiiy”[3]. Bugungi globallashuv va tezkor rivojlanish davrida insonlar o'zgarimoqda, qadriyatlar transformasiyasi yuz bermoqda. Bular “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzulqik va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Yoshlar tarbiyasiga etarli e'tibor qaratilmagani oqibatida o'tgan yili (2016) 18 dan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar tomonidan jami 31 ming 933 ta jinoyat sodir etilgan”[4], – degan fikrlari barchamizni ogohlikka chorlaydi.

Madaniyat – milliy qadriyatning asosi bo'lib, kishilik jamiyati yoki biror xalqning ishlab chiqarishda ijtimoiy va ma'naviy hayotda erishgan yutuqlari hisoblanadi. Qadimgi Rimda inson tomonidan tabiatni o'zlashtirish “Cultura” deb atalgan[5]. “Ommaviy madaniyat” tushunchasiga o'zbek olimlari quyidagicha ta'rif beradi: “Ommaviy madaniyat” – madaniyat mavjudligining murakkab hamda hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o'ziga xos shakli. Ommaviy madaniyatni G'arb madaniyati bilan bog'liq hodisa deb tushunish, shuningdek, uni g'oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan”[6]. “Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati”da ham xuddi shunday izoh berilgan[7]. Faylasuf olim A.Erkaev “Ommaviy madaniyat” dunyoda juda tez va keng tarqaldi. “Ommaviy madaniyat”da ba'zi bir ijobiy jihatlar bilan bir qatorda salbiy jihatlar ham ko'p. Eng avvalo, “ommaviy madaniyat” insonni barcha sohalarida, jumladan, madaniyat va dam olish, bo'sh vaqtni tashkil qilish borasida ham individualligini yo'qotgan iste'molchiga aylantirib qo'yadi. Uning iste'mol qilayotgan ma'naviy-madaniy mahsulotlari, “san'at asarlari” esa standartlashgan, milliy qiyofasiz (pop-art) tovarga aylanadi.

Musiqada va ashulachilikda “rep”, “rok” kabi janrlar, jangarilik, mistik-fantastik filmlar, trillerlar, blokbasterlar fikrimizni tasdiqlaydi”,-deb yozadi. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida vaqti-vaqti

bilan paydo bo'ladigan turli ijtimoiy harakatlar va guruhlar ("xippi"lar, "prank"lar, "roker"lar hamda "gey"lar (besoqolbozlar) harakati, antiglobalistlar va sh.k.), fahsh va zo'ravonlikni, "vampir"lik va jodugarlikni targ'ib qiluvchi filmlar, ochiqchasiga pornografik sahnalardan iborat video lavhalar, disklar va boshqalar ta'siri esa inson shaxsini emirishga, jamiyatni degumanizasiya qilishga olib keladi. Bunday sharoitda yosh avlodni, milliy mada niyatni qanday himoya qilish kerak, degan masalaning o'zi jiddiy siyosiy, ma'naviy va ilmiy muammoga aylanadi"[8], – deb haqli ravishda e'tirof etadi Sh.G'oyibnazarov.

Davlatimiz rahbarining "Yoshlar, xususan, o'smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo'lyapti? Ba'zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo'lib borayotgani, ularda befarqlik, mas'uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko'rishga intilish kabi illatlar paydo bo'layotgani achchiq bo'lsada, haqiqat", – degan fikrlari ham bejiz emas[9].

Bunday ma'lumotlar kishini beixtiyor o'yga toldiradi. Xo'sh, o'smirlar ota-ona, maktab, mahallaning qurshovida, e'tiborida bo'lsa-da, bunday guruhlariga qanday qo'shilmoqdalar? Ma'lumki, inson huquqbuzarlik yo'liga jamiyat, oila, maktab bilan uzviy aloqaning uzilishi tufayli kiradi. Prezidentimizning "Yosh oilalar orasida arimas sabablar bilan ajrashishlar ko'payib bormoqda. Begunoh bolalar etim bo'lib, mehr va e'tiborga eng tashna vaqtida otaona tarbiyasidan chetda qolmoqda. ...Yana bir noxush holatni bugun afsus bilan aytmoqchiman: oilalarda nosog'lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o'rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o'z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda[10], – degan fikri barcha oilalar, ta'lim-tarbiya tizimi, oila bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlarining bu masalaga ilmiy, amaliy va innovasion jihatdan yondashishlari zarurligini ko'rsatmoqda. O'rta qo'yilayotgan oilaviy va yoshlar tarbiyasiga oid muammolarning quyidagi sabablari bor: a) kattalarning o'smirlarga shaxs sifatida emas, ta'sir ob'ekti sifatida qarashi; b) o'smirlar kattalar ha rakatida o'zlariga mos bo'lmagan axloqni ko'rib, sezsalor ulardan qocha boshlaydilar, natijada, ular o'zlarini aldamaydigan, teng ko'radigan odamni izlashni boshlaydilar; v) juda ko'p bolalar uchun oila hayotiy misollarda tajovuzkor axloq va psixik jarohatni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning asosiy manbai hisoblanadi; g) o'smir o'zi yashayotgan oilani do'stlarining oilalari bilan solishtiradi, undan to'g'ri yoki noto'g'ri xulosa chiqaradi; d) o'qituvchi o'smirning oilaviy sharoitini o'rganmasdan muomala qilishi, uning axloqi keskin o'zgarishiga ham olib kelishi mumkin; e) o'smir hayotining sharoitlari (yetimlik, jinoyatchilik, jismoniy va psixik zaifliklar). Jinoyatchilikning katta foizi hayot sharoiti o'ta og'ir bo'lgan o'smirlar, ya'ni jinoyatchi, ota-ona yoki har ikkovi muntazam spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi, janjalkash oilalarning bolalari, jismoniy va psixik og'ishga moyil bo'lganlar hisobiga to'g'ri keladi. O'smir va yoshlarni bunday axloqiy holatlardan va turli-tuman og'ishlardan, illatlardan, yomon guruhlariga kirib qolishdan saqlashda najot ko'prigi bo'lib xizmat qiladigan yagona narsa – bu o'smir qalbiga yo'l topa olish, u bilan do'stona, samimiy, o'zaro ishonch asosiga quriladigan munosabat o'rnatishdir[11]. Ba'zi ota-onalar farzandi yaxshi inson bo'lishini istab, ularga e'tiborni haddan tashqari kuchaytirib, o'zlari bilmagan holda unga barcha sharoitlar, kompyuter, qimmat kiyim-kechaklar, kezi kelsa qo'lga pul, uyali telefon olib beradilar.

Bunday tarbiyani ilmiy tilda (giperopeka) deyiladi. Ota-ona ko'z qorachig'iday asrab, butun kuch-quvvati va mehrini berib, oqibatda boqibeg'am, landavur yoki tekinxo'rni, mehr-shafqatsiz farzandni tarbiyalashi ham mumkin. Bunday holatlarning oldini olishda bolani yoshligidanoq uning xulqi shakllanishiga, milliy-axloqiy, ma'naviy-madaniy qadriyatlar, milliy istiqlof mafkurasi asosida Vatanga sodiq qilib tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Ma'naviy qadriyatlar amaliy jihatdan keng ma'noda insonning barcha xatti-harakati, faoliyati, xulqi, odobi, insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lsa, tor ma'noda odamlarning falsafiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy qarashlarida, tafakkuri, dunyoqarashlarida namoyon bo'ladi. Bugungi innovasion texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglash,

erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi mumkin. Ma'naviyat inson ruhiyatini ifodalaydi. Ya'ni, o'zligini anglash, did-farosat, aql-idrok, yaxshilikni yomonlikdan, ezgulikni jaholatdan, adolatni razillikdan, ogohlikni loqaydlikdan, oqillikni johillikdan ajrata bilish qobiliyatini belgilaydi. Ma'naviyat cheksiz borliqning inson ruhida ifodalanishi hamda komil insonning ongi, qalbi, vijdonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qayumov O'. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida O'zbekiston yoshlarining ijtimoiylashuv jarayonlari. T; "Ijtimoiy fikr", 2011. B.44-45.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. . T; "O'zbekiston", 2012. II-bob. 14-modda. B. 5.
3. Mavrulov A. Vatanni sevish mas'uliyati. T:"Sano-standart" B. 46.
4. Shavkat Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.B.324
5. Slovar inostrannix slov. M;1964. S.348
6. Falsafa: qomusiy lug'at. – T; «Sharq», 2004. B.313.
7. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T; G'ofur G'ulom nomidagi NMIU, 2010. B.460.
8. Qarang: G'oyibnazarov Sh. Ommaviy madaniyat T; "O'zbekiston", 2012. B.13-14.
9. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.B.486
10. Yusupova L. O'zaro ishonch tarbiya vositasi bo'lsin. - Bola va zamon.№2. 2006. B.33.
- 11 Majidov N. Oila – muqaddas Vatan. Sog'lom avlod uchun. №1.2000. B.19